

# Yashil

## IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

9  
2023



- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti

- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati



74-91 xalqaro daraja  
ISSN: 2992-8982



# **Yashil** IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

## **Bosh muharrir:**

Sharipov Qo'ng'irotboy Avezimbetovich

## **Bosh muharrir o'rinnbosari:**

Karimov Norboy G'aniyevich

*Elektron nashr. 464 sahifa, 30-sentyabr, 2023-yil.*

## **Muharrir:**

Qurbanov Sherzod Ismatillayevich

## **Tahrir hay'ati:**

Rae Kvon Chung, Janubiy Korea, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi

Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyatni rahbari

Toshkulov Abduqodir Hamidovich, i.f.d., prof., O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yoshlar, fan, ta'lif, sog'liqni saqlash, madaniyat va sport masalalari bo'yicha maslahatchisi o'rinnbosari

Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, i.f.d., O'zR Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vaziri o'rinnbosari

Sharipov Qo'ng'irotboy Avazimbetovich, t.f.d., prof., TDIU rektori

Oblamuradov Narzulla Naimovich, i.f.n., dots., O'zR Tabiat resurslari vaziri o'rinnbosari

Djumaniyazov Maqsud Allanazarovich, Qoraqalpog'iston Respublikasi Tabiat resurslari qo'mitasi raisi

Axmedov Durbek Kudratillayevich, i.f.d., prof., O'zR Oliy Majlis qonunchilik palatasi deputati

Utayev Uktam Choriyevich, O'zR Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinnbosari

Ochilov Farxod, O'zR Bosh prokuraturasi iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti bo'limi boshlig'i

Eshov Mansur Po'latovich, i.f.d., prof., TDIU Akademik faoliyat bo'yicha prorektori

Xudoqulov Sadirdin Karimovich, i.f.d., prof., TDIU YoMMMB birinchi prorektori

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlari va innovatsiyalar bo'yicha prorektori

Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, i.f.d., prof., "O'IRIAM" ilmiy tadqiqot markazi direktori – prorektor

Yuldashev Maqsud Abdullayevich, p.f.d., prof., TDIU Moliya-iqtisod ishlari bo'yicha prorektori

Karimov Norboy G'aniyevich, i.f.d., prof., TDIU huzuridagi PKQTMO tarmoq markazi direktori

Hakimov Nazar Hakimovich, f.f.d. TDIU profesor

Yuldashev Mutallib Ibragimovich, i.f.d., TMI professori

Samadov Asqarjon Nishonovich, i.f.n., TDIU Marketing kafedrasи professori

Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, t.f.d., Rossiya xalqlar do'stligi universiteti professori

Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universiteti rektori

Aliyev Bekdavlat Aliyevich, f.f.d., TDIU professori

Po'latov Baxtiyor Alimovich, t.f.d., prof., Atrof-muhit va tabiatni muhofaza qilish texnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti

Axmedov Javohir Jamolovich, i.f.f.d., "El-yurt umidi" jamg'armasi ijrochi direktori o'rinnbosari

Isakov Janabay Yakubbayevich, i.f.d., TDIU professori

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, t.f.f.d., Toshkent arxitektura-qurilish universiteti katta o'qituvchisi

Kamilova Iroda Xusniddinovna, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Sevil Piriyeva Karaman, PhD, Turkiya Anqara universiteti doktaranti

Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, TDIU katta o'qituvchisi

Rustamov Ilhomiddin, f.f.n., Farg'onan davlat universiteti dotsenti

Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li, TDIU Ilmiy tadqiqotlar va

innovatsiyalar departamenti rahbari

Babayeva Zuhra Yuldashevna, TDIU huzuridagi Pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq Markazi xorijiy hamkorlik bo'yicha mutaxassis

## **Ekspertlar kengashi:**

Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, i.f.d., TDIU dotsenti

Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Imomqulov To'iqin Burxonovich, i.f.f.d., TDIU dotsenti

**Muassis:** "Ma'rifat-print-media" MChJ

**Hamkorlarimiz:** Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,  
O'zR Tabiat resurslari vazirligi,  
O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

## **Jurnalning ilmiyligi:**

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali

O'zbekiston Respublikasi  
Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar  
vazirligi huzuridagi Oliy  
attestatsiya komissiyasi  
rayosatining  
2023-yil 1-apreldagi 336/3-  
sonli qarori bilan ro'yxatdan  
o'tkazilgan.



# MUNDARIJA

Ichki turizmni rivojlanlantirishda davlatning o'rni.....	7
<b>Dehqonov Burxon Rustamovich</b> , tayanch doktorant	
Qishloq xo'jaligida sug'orish tizimlari boshqaruvini rivojlanlantirish yo'llari .....	11
<b>Mirjamilova Hulkar Nurali qizi</b> , assistent	
Yangi O'zbekiston sharoitida o'simliklar karantini tizimi faoliyatini takomillashtirish va iqtisodiy samaradorligini oshirish .....	15
<b>Alimov Murodkosim Achilovich</b> , mustaqil izlanuvchi	
"Yashil iqtisodiyot"da energetika sohasini investitsion holatining statistik tahlili .....	20
<b>Umarov Faxriddin Umar o'g'li</b> , katta o'qituvchi	
Yoqilg'i-energetika korxonalari moliyaviy barqarorligini ta'minlashda investitsion faoliyatning ahamiyati .....	26
<b>Ergashev Muhibbek Aslam o'g'li</b> , mustaqil izlanuvchi	
Tog'li hududlarda turizm biznesining rivojlanishi .....	31
<b>Abduvakil Alimov Komil o'g'li</b> , tayanch doktorant	
Ta'lif turizmining nazariy asoslari va O'zbekistondagi tendensiyalari.....	38
<b>Maxmudova Nodira O'ktamovna</b> , tayanch doktorant	
Turizmga innovatsion texnologiyalarni joriy qilish shart sharoitlari .....	43
<b>Po'latov Ma'murjon Murodjon o'g'li</b> , tayanch doktorant	
Mintaqaviy investitsion loyihalarining jozibadorligi tahlillari masalalari .....	46
<b>Davlyatshayev Akmal Ashurmamatovich</b> , dotsent, i. f. n.	
Yashil iqtisodiyotning tijorat banklaridagi ahamiyati va ularning raqamlashuvi.....	51
<b>Maxmudova Muxlisa Qodirjon qizi</b> , dotsent, PhD	
Turizmni rivojlanlantirishda "Tourism 4.0" konsepsiyasini joriy etish masalalari .....	57
<b>Yuldasheva Dilnoza Ulug'bekovna</b> , mustaqil tadqiqotchi	
Davlat tomonidan qishloq xo'jaligini moliyaviy qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish .....	62
<b>Olikulova Feruza Mansurovna</b> , PhD; <b>Jabborov Jahongir Abduvohid o'g'li</b> , magistrant	
Перспективные направления "Зелёной химии" для Республики Узбекистан.....	66
<b>Султанходжаев Баҳтиёр Забиҳуллаевиҷ</b>	
O'zbekistonda transport va logistika sohasini rivojlanlantirish strategiyasi .....	73
<b>Usmonov Botir</b> , magistr	
Hududlarda investitsion faollikni oshirishga qaratilgan mexanizmni takomillashtirish .....	78
<b>Sunatullayeva Shaxnoza Xurshid qizi</b> , tayanch doktorant	
Qurilish tarmoqlarida boshqaruv faoliyatining iqtisodiy ko'rsatkichlari tahlili.....	82
<b>Mirsodiqov Abdulla Tursunaliyevich</b> , PhD	
Connection between interest rate on loans, cash flow and turnover of funds .....	87
<b>Sharbat Abdullaeva, Professor; Sardor Abdullaev</b> , the applicant	
Econometric Analysis of the Impact of IPO on the Market Capitalization of Companies .....	92
<b>Shakhzod Saydullaev</b> , PhD.	
Davlat xaridlarini takomillashtirishda byudjet mablag'laridan samarali foydalanishning mohiyati va zarurligi .....	101
<b>Raximjonov Kamronbek Ilxomjon o'g'li</b> , mustaqil tadqiqotchi	
O'zbekistonda to'lov tizimining raqamli transformatsiyasining o'ziga xos xususiyatlari.....	105
<b>Otamurodov Shavkat Nusratillayevich</b> , i. f. d. (DSc); <b>Eshqulova Nasiba Normo'minovna</b> , o'qituvchi	
Tijorat banki xizmatlarida ta'lif kreditining o'rni va uni takomillashtirish masalalari.....	110
<b>Eldor Uskanov</b> , mustaqil tadqiqotchi	
Korxonaning strategik boshqaruvini takomillashtirish .....	114
<b>Maxmudov Nosir Maxmudovich</b> , professor; <b>Elmurodov Faxriddin Farxodovich</b> , magistratura tinglovchisi	



Respublikada kichik biznesni moliya-kredit mexanizmlari orqali qo'llab-quvvatlash masalalari .....	120
<b>Ergashev Otamurod Toshtemirovich</b> , PhD	
Mulk iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashda muammo va yechimlar .....	125
<b>Ermatov Musojalil Komilovich</b> , kafedrasi dotsenti v. b.; <b>Abdunazarov Oybek Abdumutlibovich</b> , katta o'qituvchi	
Using intelligent and decision support systems for developing University Curriculum: semi-automated need analysis approach .....	132
<b>Abduraxmanov Zafar Batirovich; Ikromov Sayidolim Ismoilovich</b>	
Challenges of Developing a Competitive Environment in the Context of Economic Liberalization.....	138
<b>Akobirova Nodira Najmuddin qizi</b> , asisstant	
Topical Issues of the Development of Recreational-Tourist and Military-Recreational Activities.....	141
<b>Alimova Guzal Alisherovna</b> , PhD in economics, docent	
Kreditlash jarayonlarida xulq-atvor iqtisodiyoti omilini joriy etish istiqbollari .....	146
<b>Jo'rayeva Sevara Zakirovna</b> , mustaqil izlanuvchi (PhD)	
Portfelli xorijiy investitsiyalarining milliy iqtisodiyotni rivojlantirishdagi roli .....	152
<b>Kamilova Iroda Xusniddinovna</b> , PhD	
Exploring the Ethical Dimensions of Artificial Intelligence in Advancing Human Rights and Sustainability .....	156
<b>Matkarimova Gulchekhra Abdusamatovna</b> , Professor	
Tijorat banklarida muammoli kreditlar bilan ishslashning nazariy asoslari.....	163
<b>Maxmudov Rahimjon Xamid o'g'li</b> , mustaqil izlanuvchi	
Barqaror iqtisodiy o'sishga yalpi talab va yalpi taklif omillarining ta'siri.....	170
<b>Nabiiev Ulug'bek Mirodiljon o'g'li</b> , tayanch doktorant	
The potential advantages of implementing the Total Quality Education Management (TQEM) concept .....	175
<b>Otakulov Makhamadjon</b> , PhD	
Kichik yashil biznesni yanada rivojlanitirish imkoniyatlari .....	181
<b>Raximova Kizlarxon Ne'matjon qizi</b>	
Jamg'armalar investitsiyalar manbasi sifatida .....	185
<b>Sadikova Ra'no Abdullayevna</b> , i. f. n., dots.	
Davlat moliyasining moddiy assosini oshirish orqali iqtisodiy o'sishga erishish .....	188
<b>Shamsiyev Shuxrat Sayfutdin o'g'li</b> , mustaqil izlanuvchi	
Aholi turmush darajasini oshirishda ijtimoiy himoyaning o'rni .....	191
<b>Sherjonov Sherjon Alijan o'g'li</b> , mustaqil izlanuvchi	
Xo'jalik yurituvchi subyektlar to'lov qobiliyatini aniqlashning nazariy-uslubiy masalalari.....	196
<b>Adashaliyev Baxtiyorjon Valisher o'g'li</b> , dekan o'rinosari	
Kichik sanoat zonalari faoliyatini samarali boshqarish tamoyillari .....	203
<b>Shodmonqulov Kamoliddin Murodillayevich</b> , dotsent; <b>Adilbekov Allayar Anvarbekovich</b> , magistrant	
Aholini ijtimoiy himoya qilishda pensiya va ijtimoiy nafaqalarning o'rni .....	206
<b>Aliyev Ma'ruf Komiljon o'g'li</b> , mustaqil izlanuvchisi	
Использование методов управления для повышения эффективности производства на предприятиях.....	212
<b>Алиева Надирахон Абдумаликовна</b> , PhD. доц.; <b>Тлеумуратова Мадинабону Дилмурат кизи</b> , ст. 3-курса	
Korxonalar moliyaviy barqarorligini ta'minlash mexanizmini takomillashtirish.....	217
<b>Z. G. Allaberganov</b> , kafedra dotsenti	
Davlat fiskal (byudjet-soliq) siyosatining aholi bandligiga ta'siri va uni takomillashtirish.....	222
<b>Asatullayev Xurshid Sunatullayevich</b> , i. f. n., professor	
O'zbekistonda iqtisodiyot tarmoqlariga raqamli iqtisodiyotni shakllantirish omillari.....	228
<b>Axmedova Yulduz Sunatullayevna</b> , kafedra o'qituvchisi	
Moliyaviy risklarni baholash usullari, boshqaruvdag'i yondashuvlari .....	232
<b>Baymuratova Gulirayxon Tursunbayevna</b> , kafedra dotsenti	



Sug'urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligini ta'minlashda biznes jarayonlarini boshqarish .236 <b>Baxriyev Dilshod Rizvonkulovich</b> , mustaqil izlanuvchi	
Tijorat banklarida investitsiya loyihalarini moliyalashtirishning ekonometrik modellashtirish ko'satkichlari.....242 <b>Berdiev Akram O'ktamovich</b> , mustaqil izlanuvchi	
Innovatsion muhitni shakllanishi va rivojlanishida investitsiyaning zarurligi .....253 <b>Bobobekov Ergash Abdumalikovich</b>	
Meva-sabzavotchilik klasterlarida yashil moliyalashtirishning nazariy asoslari va xususiyatlari .....258 <b>Botirov Erkinjon Xayitovich</b> , kafedra dotsenti	
O'zbekiston Respublikasida xorijiy investitsiyalarni jalg etish orqali investitsion salohiyatni oshirish .....263 <b>G'aybullayev Odil Baxtiyarovich</b> , kafedra dotsenti v. b.	
Tadbirkorlik subyektlarining innovatsion loyihalarini moliyalashtirishni qo'llab-quvvatlash mexanizmini takomillashtirish .....269 <b>Jubanova Bayramgul Aymuratovna</b> , PhD	
Soliq ma'muriyatichiligi va uni raqamlashtirishni ekspert baholash yo'llari.....272 <b>Ibragimov Boburshoh Bohodir o'g'li</b> , i. f. d. (PhD), doktorant (DSc)	
Xalqaro standartlarga muvofiq buxgalteriya autsorserlari tomonidan moliyaviy hisobotlarni transformatsiya qilishni takomillashtirish.....278 <b>Islomov Alisher Baxtiyor o'g'li</b> , mustaqil izlanuvchi	
O'zbekistonda moliyaviy hisob va hisobotni MHXSlariga transformatsiya qilishda asosiy vositalar hisobini tashkil etish masalalari .....284 <b>Qurbanova Shaxrinoz</b> , tayanch doktorant	
Yerlarning degradatsiyaga uchrashi va oldini olish bo'yicha chora-tadbirlar .....288 <b>Mamanazarova Nasiba Jo'rayevna</b> , kafedra doktoranti	
Davlat sektorida ichki auditni tashkil etish xususiyatlari .....292 <b>Mamirjon Jalollidinov</b> , mustaqil izlanuvchi	
Финансирование акционерных общества через рынок капитала .....297 <b>Муминов Шохжакон Суюнович</b> , ассистент кафедра	
Необходимость развития предпринимательской и страховой деятельности риски на рынке Узбекистана .....302 <b>Муяддинов Махмуд Жалелович</b> , независимый исследователь	
Инвестиционная привлекательность как фактор экономического развития страны.....307 <b>Назарова Гузал Баходировна</b>	
Tijorat banklarida kreditlash jarayonlarini takomillashtirish masalalari.....312 <b>Nozima Abdullayeva</b> , mustaqil tadqiqotchi	
Tijorat banklarining xizmatlar sohasini kreditlash amaliyotiga ta'sir etuvchi omillarning ekonometrik tahlili.....316 <b>Nurmuxammedov Abdijabbar Yunusovich</b> , kafedra dotsenti v. b.	
Современное решение, которое положительно влияет на логистические услуги и резко снижает смертность на перекрестках.....326 <b>Тажимуратов Умид Рузматович</b> , <b>Бахриев Иброхим Исометдинович</b> , кандидат медицинских наук, доцент; <b>Жуманиёзов Эркин Худойберганович</b> , кандидат медицинских наук, доцент; <b>Тажимуратов Рузмат Отажанович</b> , кандидат медицинских наук, <b>Тажимуратов Абдусами Умид угли</b> , ученик 10 класса	
O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarida dividend siyosati va tendensiyalari tahlili .....333 <b>Temirov Abdulaziz Alimjanovich</b> , kafedra dotsenti, i. f. n.	
Современное состояние инвестиционного потенциала Республики Узбекистан.....339 <b>Топилдиев Соҳибжон Раҳимжонович</b> , DSc; <b>Одилова Дилноза Барнаевна</b> , PhD	
Portfelli xorijiy investitsiyalarni milliy iqtisodiyotni rivojlantirishdagi roli.....345 <b>Tosheva Ziroat Aliqul qizi</b>	



Kichik biznes subyektlarida raqamli texnologiyalardan foydalanishning ilmiy-nazariy jihatlari .....	349
<b>To'rayeva Nafisa Odilovna</b> , mustaqil izlanuvchi	
O dostizheniyaх Uзbekistana v realizatsii naionalnyx celей i zadach ustoychivogo razvitiya.....	355
<b>Tursun Muxitovich Ahmedov</b> , i. ф. д., prof.; <b>Gavhar Rustamovna Xidirova</b> , doktorant, i. ф. ф. д., doz.	
Vliyanie korporativnogo upravleniya v zelenoy ekonomike .....	359
<b>Urinov Bobur Nasilloevich</b> , zavedeyuchiy kafedroy	
Ko'chmas mulkni soliqqa tortishning o'ziga xos xususiyatlari.....	366
<b>Fayziyev Farrux Abdullaxojayevich</b> , kafedra dotsenti	
Transport tizimi iqtisodiy rivojlantirish yo'naliishlari.....	374
<b>Fayzullayev Javlonbek Sultonovich</b> , DSc.	
Oliy ta'lim muassasalarida byudjet mablag'laridan samarali foydalanishning ayrim fundamental masalalari.....	382
<b>Xayriddinov Sh. B.</b> , mustaqil izlanuvchi	
Xalqaro raqamli valyuta bozorini rivojlantirish istiqbollari .....	385
<b>Xolov Nabijon Qaxramonovich</b> , PhD.	
Nodavlat notijorat tashkilotlarning rivojlanishi va hozirgi shart-sharoitlari .....	391
<b>Xusanov Otabek Nishonovich</b> , PhD, mustaqil izlanuvchi	
Banklarining aktivlarini daromadlilagini oshirish yo'llari.....	396
<b>Elbusinova Umida Xamidullayevna</b> , kafedra dotsenti	
Osobennosti metodiki provedenia audita затрат на производство.....	401
<b>Хилола Икрамова Ровшан кизи</b> , bazovyj doktorant	
Ta'lim islohotlarining ma'naviyatdagi o'rni .....	407
<b>Bekdavlat Aliyev</b>	
O'zbekistonda tijorat banklari emission operatsiyalarining dolzarb masalalari .....	412
<b>O'ktamova Nozima Narzulla qizi</b> , kafedra dotsenti	
Moliyaviy barqarorligi tushunchasining konseptual mohiyati, turlari va asosiy tavsiflari .....	416
<b>Eshquvatov Aziz Baxtiyorovich</b> , mustaqil izlanuvchi	
XX asr jadid ma'rifatparvarlari Abdurahmon Toshkandiy va Abdulla Avloniy axloqiy konsepsiylaridagi umumiylilik va xususiylik.....	420
<b>Abrorxon Asatulloyev Asatulloyevich</b> , falsafa fanlari doktori (PhD)	
Yer resurslaridan foydalanishning iqtisodiy va huquqiy asoslari.....	424
<b>Abdurahmanova Muqaddas Toxtasinovna</b>	
Стратегии привлечения иностранных инвестиций для содействия устойчивому экономическому росту в Республике Узбекистан с акцентом на инициативы зеленого развития .....	431
<b>Нилуфар Зикируллаева Дилмуродовна</b> , аспирант	
Bank tizimi barqarorligini oshirishda kredit risklarining ahamiyati va ularni kamaytirish yo'llari .....	440
<b>Xolmamatov Farhodjon Kubayevich</b> , iqtisodiyat fanlari bo'yicha falsafa doktori, professor	
Baholash faoliyatini rivojlantirish yo'naliishlari va uning huquqiy asoslari .....	446
<b>Bobirjon Aktamov</b> , mustaqil tadqiqotchi	
Suv resurslaridan foydalanishni iqtisodiy boshqarish samaradorligini kompleks baholash uslubiyoti.....	454
<b>Axmedov Sayfullu Normatovich</b> , t. f. n., mustaqil tadqiqotchi	
Oliy ta'lim muassasalarida ilmiy-tadqiqot faoliyatini boshqarishni takomillashtirish metodologiyasini ishlab chiqish.....	459
<b>Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li</b>	



# TRANSPORT TIZIMI IQTISODIY RIVOJLANTIRISH YO'NALISHLARI

Fayzullayev Javlonbek Sultonovich

DSc., Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti v. b.

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada transport tizimini samaradorligini belgilab beruvchi asosiy yo'nalishlar, transport majmuasi, transport tizimi va transport infratuzilmasi tushunlarining o'zaro bog'liqligi hamda transport turini tanlashda ta'sir etuvchi asosiy omillar kesimida har xil transport turlarining bahosi keltirilgan, yuklarni yetkazib berish xarajatlarini optimallashtirishning o'ziga xos xususiyatlari yoritilgan, transport tizimi samaradorligini oshirish bo'yicha vazifalar ko'rsatib berilgan.

**Kalit so'zlar:** transport tizimi, temir yo'l transporti, transport-logistika, tranzit tashuvlar, yuklarni yetkazib berish, vazifalar iyerarxiyasi, transport kompleksi, transport infratuzilmasi.

**Abstract:** This article describes the main directions that determine the efficiency of the transport system, the relationship between the concepts of transport complex, transport system and transport infrastructure and the main factors influencing the choice of mode of transport. suggestions for improvement are given.

**Key words:** transport system, railway transport, transport-logistics, transit transportation, cargo delivery, hierarchy of tasks, transport complex, transport infrastructure.

**Аннотация:** В статье рассмотрены основные направления, определяющие эффективность транспортной системы, взаимозависимость понятий транспортного комплекса, транспортной системы и транспортной инфраструктуры, а также основные факторы, влияющие на выбор вида транспорта, оценка представлены различные виды транспорта, выделены особенности оптимизации затрат на доставку грузов, обозначены транспортные задачи по повышению эффективности системы.

**Ключевые слова:** транспортная система, железнодорожный транспорт, транспортно-логистика, транзитные перевозки, доставка грузов, иерархия задач, транспортный комплекс, транспортная инфраструктура.

## KIRISH

Jahonda yuz berayotgan globallashuv hamda integratsiya jarayonlarida transport kompleksining ahamiyati tobora ortib bormoqda. Juhon banki ma'lumotlariga ko'ra, jahon transport xizmatlarining Yalm tarkibidagi miqdori 4,3 trln. AQSh dollari (6,9%)ni tashkil etib, yiliga 110 mld. tonna yuk va 1 trln. dan ortiq yo'lovchilar tashilmoqda, transport kompleksida band bo'lgan xodimlar soni 100 mln. kishini tashkil etmoqda [1]. Mazkur sohalarni rivojlantirish jahon transport va logistika tizimi (The global transport and logistic system) tomonidan amalga oshiriladi. Transport tizimida yetkazib berishning zamонави texnologiyalaridan foydalanish moddiy zaxiralar hajmini 30% dan 60% gacha tejash, shuningdek, transport xizmatlaridan foydalanuvchi korxonalarining yetkazib berish xarajatlarini taxminan 30–35 foizga kamaytirilishiga erishish imkonini beradi.

Jahonda transport tizimi samaradorligini oshirish yuzasidan keng qamrovli ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Xususan, transport faoliyatini yanada samarali rivojlantirish masalalariga majmuaviy yondashish, transport tizimini samarali rivojlanishini ta'minlaydigan iqtisodiy yondashuvlarni shakllantirish bo'yicha olib borilayotgan tadqiqotlarda transport tarmog'i rivojlanishining ijobji ta'sirlari qayd etilgan, shunga qaramay, ushbu ta'sirlarning yo'nalishi va ko'lami bo'yicha kompleks fikr shakllanmagan. Shundan kelib chiqqan holda, transport tizimini rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslarini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha izlanishlar olib borish lozimligini belgilaydi.

Mamlakatimizda iqtisodiyotning muhim tarmog'i sifatida transport kommunikatsiyalarini jadal rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu borada 2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida "Milliy transport logistika kompaniyalari o'rtaida raqobat darajasini oshirish" [2] bo'yicha muhim vazifalar belgilab berilganligi hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Oliy Majlisga Murojaatnomasida "Mahsulotlarimizni ichki va tashqi bozorlarga yetkazish, ularning tannarxini tushirish



uchun transport-logistika sohasini rivojlantirishimiz zarur”<sup>[3]</sup> deb ta’kidladilar. Bu o’z navbatida mamlakat transport-tranzit salohiyatidan va zamonaviy yetkazib berish texnologiyalaridan samarali foydalanishni hamda transport tizimi samaradorligini oshirish yuzasidan ilmiy tadqiqotlar olib borishning maqsadga muvofiqligini ifodalaydi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Transport tizimini rivojlantirishning nazariy-uslubiy asoslari bir qator mahalliy va xorijlik olimlarning ilmiy tadqiqotlarida o’z aksini topgan. Ingliz iqtisodchisi Entoni Venablsning fikriga ko’ra transport kompleksi bu ijtimoiy ishlab chiqarishning yuklar va yo’lovchilarni tashishga bo’lgan ehtiyojini qondirishga ixtisoslashgan xalq xo’jiliqi tarmoqlari yig’indisi tushuniladi<sup>[4]</sup>.

D. Bauersoksnинг fikricha, an’anaviy usullarga nisbatan yuk tashuvlarini tashkil etishning afzalligi va iqtisodiy samaradorligi masalalarini kiritgan holda multimodal va intermodal yuk tashuvlarini tashkil etish muammolariga alohida e’tibor qaratgan. Shu bilan birga muallif, transport tarmoqlari, transport vositalari va transport kompaniyalari o’z ichiga olgan transport tizimini alohida qayd etadi<sup>[5]</sup>.

Mamlakatimiz olimlaridan G’. Samadov, A. Zoxidov, A. Gulamov va M. Ravshanovlarning fikricha “transport tizimi – bu yuk va yo’lovchilarni o’z manziliga yetkazish jarayonida o’zaro aloqasi bo’lgan transport turari va infratuzilmalari majmuasi, ya’ni o’zaro bog’liq bo’lgan transport sektorlari, mehnat resurslari hamda mamlakat iqtisodiyotini samarali boshqarish maqsadida transportning barcha turlarini boshqaruv tizimi tushuniladi”<sup>[6]</sup>.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Transport tizimini rivojlantirish muammolarini tahlil etish bilan shug’ullangan milliy va xorijlik olimlarning ilmiy izlanishlari natijalari mazkur tadqiqotning nazariy-uslubiy bazasi sifatida xizmat qildi. Maqolani tayyorlashda abstrakt va analitik mushohada, qiyosiy va omilli tahlil, indikativ, tanlanma kuzatuv, taqqoslash, iqtisodiy-statistik va boshqa usullardan foydalanildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Jahon davlatlari iqtisodiyotining samarali rivojlanishida asosiy “qon aylanish” vazifasini bajaruvchi transport kompleksi alohida ahamiyat kasb etadi. Samarali transport tizimi ichki bozorda xosh-ashyo va mahsulot harakatlari optimallashtiradi, shu bilan bir qatorda tashqi savdoda mamlakatning iqtisodiy raqobatbardoshligini oshirib, jahon bozoriga integratsiya jarayonlarini tezlashtirish imkoniyatini beradi. Umuman olganda mamlakatni keng ko’lamda rivojlantirish mintaqalararo iqtisodiy munosabatlarning yuqori sur’atlarda bo’lishi keng ma’noda transport infratuzilmasining samarali faoliyatiga ham bevosita bog’liq.

Shuni alohida ta’kidish lozim, transport-tranzit hamda transport-logistika salohiyatini oshirish geografik nuqtayi nazardan optimal joylashmagan, shu bilan birga to’g’ridan to’g’ri dengiz portlariga hatto qo’shni davlatlar orqali chiqish imkoniyatiga ega bo’limgan davlatlar uchun tashqi siyosatning ustuvor yo’nalishlaridan biri hisoblanadi. Ammo, bugungi kunda mazkur sohalarning samaradorligini oshirish yuzasidan xalqaro amaliyot va nazariyada turlicha yondashuvlarning mavjudligi dastlab ularni to’g’ri talqin qilish hamda nazariy asoslarini aniqroq yoritib berish lozimligini belgilaydi. Shu o’rinda nazariyaning lug’aviy ma’nosiga to’xtab o’tish maqsadga muvofiq, nazariya qaysidir bilimlar sohasiga taaluqli bo’lgan asosiy g’oyalar majmui hisoblanib, jamiyat va tabiatdagi barcha hodisa va jarayonlarning yuz berishi hamda shakllanishida qandaydir bog’liqlik va qonuniylilikning mavjudligi haqida tasavvur beradi.

Shundan kelib chiqqan holda, mamlakat transport tizimi haqida fikr yuritganda, dastlab “transport kompleksi”, “transport tizimi”, “transport infratuzilmasi” tushunchalarining o’zaro bog’liqligi hamda “tranzit” va “transport-logistika tizimi” kabi tushunchalarning mazmun mohiyatlarining o’zaro farqlarini aniqlab olishni taqozo etadi.

Xorij olimlarning tadqiqotlarida “transport kompleksi” atamasiga turlicha ta’riflar keltirilgan bo’lib, ularning yondashuvlarida umumiy o’xshash tomonlari uchraydi. Masalan, amerikalik mutaxassis Stiven Frederik Starr transport kompleksi kategoriyasiga quyidagicha ta’rif bergan: “Transport kompleksi – yo’lovchilar va yuklarni tashishga bo’lgan ehtiyojni qondirish uchun iqtisodiyot tarmoqlari yig’indisi”<sup>[7]</sup>.

Rossiyalik olim N. P. Tereshina o’zining “Transport iqtisodiyoti” o’quv qo’llanmasida “transport kompleksi bu o’zaro bog’liq transport turlarining hududiy uyg’unligi bo’lib, ular bir-biri bilan o’zaro hamkorlikda ijtimoiy xo’jalik va aholining yuklar va yo’lovchilarni tashishga bo’lgan ehtiyojini to’liq qondiradigan sektorlar majmui”<sup>[8]</sup> degan ta’rif keltirilgan.

Mahalliy va xorijlik olimlarning yondashuvlariga asoslanib, fikrimizcha, mamlakat transport kompleksi – hamkorlikda harakat qiladigan, bir-birini to’ldirib keladigan, har biridan samarali foydalanishni ta’minlagan holda bir-biriga bog’liq tarzda taraqqiy etadigan turli transport turlari majmui tushuniladi.


Transport kompleksi obyektlari qatoriga transport, transport sanoati (transport mashinasozligi, transport qurilishi, tashish jarayonining moddiy-texnik ta’minoti), transport uchun kadrlarni tayyorlash muassasalarini va tashkilotlari, loyiha hamda ilmiy-tadqiqot ishlarini o’tkazish bo’yicha muassasalar, ta’mirlash korxonalarini kiradi.



Transport kompleksi tarkibiga kiruvchi transport tizimi – mulkchilik shaklidan qat'iy nazar, bir biriga samarali ta'sir ko'rsatadigan va har xil yuk ortish-tushirish, qurilish ishlaringin bajarilishini, shuningdek, transport xizmatlariga bo'lgan talabni qondirish maqsadida yuk va yo'lovchilar harakatini ta'minlaydigan transport turlari hamda vositalari to'plami tushniladi. Transport tizimi minimal xarajatlar evaziga transportga bo'lgan ehtiyojlarni maksimal darajada qondirish maqsadida transportning barcha turlarini muvofiqlashtirish, uning samarali ishlashini ta'minlaydi.

Yuqorida tizimlashtirilgan ta'riflardan aytish mumkin, transport tizimining tarkibiy qismi qatnov yo'llari, texnik inshootlar, yuk stansiyalari, yo'lovch vokzallari, chipta sotish markazlari, tashishni tashkil etish kompaniyalari, logistika markazlari, omborxonalar, muhandislik tarmoqlari, kommunikatsiyalar va boshqa elementlardan tashkil topadi.


Yuqoridagi yondashuvlarga asoslanib, "transport kompleksi" "transport tizimi" tushunchasiga nisbatan kengroq tushuncha "transport tizimi" tushunchasi ba'zan "transport infratuzilmasi" kabi anglanadi, biroq ko'pincha ana shu "transport infratuzilmasi"ni ham o'z ichiga oladi. Fikrimizcha, mazkur atamalarning o'zaro bog'liqligi quyidagicha izohlanadi (1-rasm.)



**1-rasm:** Transport majmuasi, transport tizimi va transport infratuzilmasi tushunlarining o'zaro bog'liqligi

Manba: Olib borilgan tadqiqotlar asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Mamlakatning iqtisodiy xavfsizligi va mudofaaga qodirligini ta'minlash, mamlakat iqtisodiyotini barqarorlashtirish hamda jahon bozoriga chiqish uchun rivojlanayotgan davlatlar samarali yagona transport tizimiga ega bo'lishini talab etadi. Iqtisodiy, tashkiliy, texnologik va siyosiy omillarni hisobga olgan holda yagona transport tizimi quyidagi asosiy yo'nalishlarni ta'minlashi maqsadga muvofiq hisoblanadi (2-rasm).




**2-rasm:** Yagona transport tizimi samaradorligini oshirishning asosiy yo'nalishlari

Manba: Olib borilgan tadqiqotlar asosida muallif tomonidan tuzilgan.



Mamlakat transport infratuzilmasining asosiy obyektlari qatoriga avtomobil yo'llari, temir yo'llari, suv yo'llari, metropoliten, aeroportlar, ko'priklar, tonnellar, estakadalar, kontakt liniyalari, vokzallar va stansiyalar, aloqa, navigatsiya va transport vositalari harakatini boshqarish tizim obyektlari, boshqa shu kabi transport majmui faoliyatini ta'minlab turadigan binolar, inshootlar, qurilmalar va uskunalar kiradi.

Transport infratuzilmasidan farqli ravishda, transport tizimi umuman mamlakat iqtisodiyoti faoliyati bilan to'g'ridan to'g'ri bog'langan. Transport tizimi – qatnov yo'llari tarmog'ining (ya'ni transport infratuzilmasi) o'ziga emas, balki uning texnik va boshqaruv qismi hamdir. Biroq mamlakat yagona transport majmuasini yaratishda transport infratuzilmasini rivojlantirish asosiy o'rinn tutadi. Transport tarmog'ini rivojlantirishda quyida keltirilgan transport tizimi va infratuzilmasini o'z ichiga oluvchi transport kompleksi tuzilmasini asos sifatida olish mumkin (3-rasm).



**3-rasm:** Transport kompleksi tuzilmasi

Manba: Olib borilgan tadqiqotlar asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Transport faoliyatini tashkil etish uchun dastlab o'z tarkibiga temir yo'l, havo va avtomobil transportlarini olgan yagona transport tizimlarining tafsiflarini bilib olish maqsadga muvofiq hoiblanadi. Transport operatsiyalarini amalga oshirayotgan korxonaning asosiy vazifalariga bog'liq holda yuklarni yetkazib berishda maqbul transport turlari tanlab olinadi. Bunda transport turlarining xarajatlari va boshqarish ko'rsatkichlarini hisobga olgan holda ulardan ratsional foydalanshni belgilab beradigan texnik-iqtisodiy xususiyatlari, ularning imkoniyatlari va kamchilik jihatlari inobatga olinadi. Yuk tashish turini tanlashda yuk jo'natuvchi ko'plab mezonlarga tayangan holda ish ko'rishi lozim bo'ladi. Ushbu mezonlar besh ballik shkala bo'yicha amalga oshiriladi. Bunda "1" – eng yuqori ball, "5" – eng quyi ball (1-jadval).

**1-jadval:** Transport turini tanlashda ta'sir etuvchi asosiy omillar kesimida har xil transport turlarining bahosi (5 ballik shkala bo'yicha)

Transport turlari	Tezligi (yetkazib berish vaqt)	Ishonchiligi (grafikk raioya qilishi)	Yuklarni tashish imkoniyati	Xizmat ko'rsatiladigan geografik nuqtalar soni	Bir tona/km qiymati (narxi)
Temir yo'l	3	4	2	2	3
Suv	4	5	1	4	1
Avtomobil	2	2	3	1	4
Quvur	5	1	5	5	2
Havo	1	3	4	3	5

Manba: Olib borilgan tadqiqotlar asosida muallif tomonidan tuzilgan.



Yuk tashish yo'nalishini tanlash – bu ekspeditor ishining eng muhim va mas'ul bosqichi hisoblanadi. Qulay yo'nalish va kerakli transport turini to'g'ri tanlash yuk tashish narxi, ishonchliligi va muddatiga nisbatan ijobiy natija beradi. Transport turlari quyidagi asosiy xususiyatlardan kelib chiqib tanlab olinadi: yuk ko'tarish imkoniyati, transport turidan foydalanish imkoniyati, tashish tannarxi va transport tavsiflari.

#### Avtomobil transporti:

- Afzalliklari: yuqori darajadagi harakatchanligi, nisbatan arzonligi, muntazamliligi;
- Kamchiliklari: yuqori tannarxi, zudlik bilan tushirib olish zarurligi, yukning o'g'irlanish ehtimoli va kam yuk ko'tarish qobiliyatni.

#### Temir yo'l transporti:

- Afzalliklari: uzoq masofaga qatnashi, yuqori hajmdagi yuk sig'imi, tashish tannarxining qimmat emasligi;
- Kamchiliklari: foydalanish (erishish) qiyinligi, operativligi, tashuvchilar sonining kamligi.

#### Havo transporti:

- Afzalliklari: o'ta yuqori tezlikka egaligi, uzoq masofaga uchishi, yuklarning butligi;
- Kamchiliklari: qimmatligi, yetkazib berishning ob-havoga bog'liqligi.

#### Quvur transporti:

- Afzalliklari: tannarxi pastligi, yuqori o'tkazish imkoniyati, muntazam qatnashi;
- Kamchiliklari: yuk xillari (nomenklaturasi) kamligi (suyuqlik, gaz), foydalanish (erishish) qiyinligi.

Demak, qilingan tanlovnning to'g'riliqi har xil transport turlari bilan tashishga bog'liq xarajatlar tahlili asosidagi texnik iqtisodiy hisobotlar bilan tasdiqlanishi lozim. Shuningdek, yuklarni aralash tashuvda yetkazib berish xarajatlarini optimallashtirish masalasini hal qilishda ushbu tanlov mezoni ma'lum darajada xizmat qiladi (2-jadval).

**2-jadval: Yuklarni yetkazib berish xarajatlarini optimallashtirishning o'ziga xos xususiyatlari**

Tanlov mezoni	Transporti turi				
	Temir yo'l	Suv	Avtomobil	Quvur	Havo
Tezligi	o'rtacha	eng past	yuqori	past	eng katta
Xarajatlar darajasi	o'rtacha	eng past	katta	past	eng baland
Tovarning ehtimoliy assortimenti	eng katta	ancha katta	o'rtacha	juda cheklangan	qisman cheklangan
Xizmat ko'rsatiladigan bozorlar soni	katta	cheklangan	cheklanmagan	juda cheklangan	o'rtachadan baland
Yetkazib berish ishonchliligi	o'rtacha	past	yaxshi	baland	o'rtacha


Manba: Olib borilgan tadqiqotlar asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Iqtisodiyot tarmoqlarida transport alohida yagona tizim bo'lib, uning faoliyatini samarali rivojlantirishga oid masalalarni tadqiq etar ekanmiz, bizda tarmoqda mavjud muammolar to'g'risida ierarxik tasavvur shakllanadi. Ma'lumki, ierarxiya qonuniga muvofiq tizimdag'i har bir bosqich o'zidan pastda va yuqorida turuvchilar bilan boshqaruvchi va boshqariluvchi subyekt vazifasini bajaradi. Transport tizimi samaradorligini ta'minlash uchun ierarxik yondashuv eng maqbul variant ekanligini e'tirof etgan holda, bu borada ilmiy izlanishlar olib borish, bugungi kunda dolzarblik kasb etmoqda.

Ierarxik tizimda har bir bosqichda muayyan vazifa bajarilishi nuqtayi nazaridan, unda funksional va tarkibiy differensiatsiya bo'lishi tabiiydir. Tizimda hajman katta miqdordagi ma'lumotlar qabul qilinishi, qayta ishlanishi va ishlatalishi nuqtayi nazaridan uning ierarxik tuzilishga ega bo'lishi maqsadga muvofiq. Bunda quyidagi bosqichlarga foydalanish uchun umumlashgan axborot taqdim etiladi. Transport tizimidagi mavjud muammolar mamlakat iqtisodiyotining o'sishiga to'sqinlik qiluvchi omillardan hisoblanadi. Shuning uchun ham ushbu muammolarni alohida ko'rib chiqish maqsadga muvofiq hisoblanadi:

- iqtisodiyot sohalari kengayib, aholi soni tobora o'sib borayotganiga mos tarzda oshib borayotgan ehtiyojlarini to'laroq qondirish;
- iste'molchilar ehtiyojini qondirish maqsadida oliy sifatli xizmatlar ko'rsatish;
- mahsulot tannarxidagi tashish xarajatlarini minimallashtirish chora-tadbirlarini ishlab chiqish;
- transport tizimi faoliyatining yuqori samaradorligiga erishish.

Yuqorida sanab o'tilgan vazifalarni ierarxik ketma-ketlikda tasvirlab quyidagi sxema ko'rinishiga keltirish mumkin (4-rasmga qarang).



4-rasm: Transport tizimini rivojlantirish vazifalari ierarxiyasi

Manba: Olib borilgan tadqiqotlar asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Yuqoridagi mulohazalardan kelib chiqqan holda, transport tizimi iqtisodiy samaradorligini oshirish bo'yicha mazkur tadqiqotda muallif tomonidan quyidagi yo'naliшlalar taklif etildi:

- ilmiy-texnik imkoniyatlar va ishlab chiqarish resurslaridan samarali foydalanishni yo'lga qo'yish;
- zamonaviy texnologiyalar asosida transport vositalariga texnik xizmat ko'rsatish tizimini takomillashtirish;
- transport tizimi tomonidan ekologiya va iqtisodiyotga yetkazilayotgan zararlarni kamaytirish yoki umuman bartaraf etishga erishish;
- zamonaviy infratuzilma uchun sarflanadigan xarajatlarning to'xtovsiz ortib borishi va ushbu talabni qondirish maqsadida yangi tushum manbalarini izlash masalasi;
- transport bozorida ishtirokchilar o'rtaсиda hosil bo'luvchi o'zaro ta'sir iqtisodiy va texnologik samaradorlikning tushib ketishini keltirib chiqaradi, oqibatda tarmoq bo'ylab temir yo'l transportida yuklarni tashish xarajatlari ortadi;
- iqtisodiyot sohasidagi inqirozlarga duch kelish va infratuzilma xizmatlaridan foydalanish uchun to'lov hamda tariflarning belgilangan daraja va miqdorining kamayishi, davlatning qo'shimcha subsidiyalar amalga oshirilishini taqozo etishi mumkin;
- tartibga soluvchi yo'naliш va obyektlarning ko'payishi bilan, shu jumladan, infratuzilma xizmatlaridan qonuniy foydalanish bo'yicha, ham davlat boshqaruvi va tartib tizimini takomillashtirish;
- iqtisodiyot va tashuvlar xavfsizligini ta'minlovchi tizim o'rtaсиda texnologik va foydalanish bo'yicha yuk tashuvchi kompaniyalar hamda infratuzilmadagi javobgarlik va vazifalarni o'zaro taqsimlash.

Mamlakat iqtisodiyotini rivojlanishida transport tarmog'ining ahamiyati alohida ahamiyat kasb etadi. Bu borada tadqiqot olib borgan olimlarning fikriga ko'ra, transport sohasidagi ba'zi ko'rsatkichlar mamlakat YALM o'sish sur'atlariga bevosita bog'liq. Jumladan, rossiyalik olim G. A. Golts<sup>[9]</sup> transport tizimining rivojlanish qonuniyatlarini o'rganib, uning taraqqiyoti, iqtisodiyotning boshqa sohalari uchun ham rivojlanishning muhim omili ekanini dalillar bilan isbotlagan.

Transport tarmog'ini rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlarini ilmiy asosda o'rganishda bu boradagi uzoq muddatli barqarorlik ko'rsatkichlarini aniqlab olish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Bu o'z navbatida ushbu soha doirasidagi tadqiqotlarning asosini tashkil etadi. Ta'kidlayotganimiz – bunday tadqiqotlardan ko'zlangan asosiy maqsad transport sohasining barqaror va o'zgarmas ko'rsatkichlarini aniqlab beradi.

$$\frac{Q}{D} = 5.8V^{0.7866}$$

Bunda: Q – uzoq masofalarga tashilgan yuk hajmi, t.; D – YALMning mutlaq miqdori, valyuta birligida; V – yukni uzoq masofaga tashish tezligi, km/soat.

Shubhasiz, bu ifodada YALM bilan yuk tashish hajmi va tashish tezligi o'rtaсиdagи bog'liqlik "to'laqonli funksional ko'rinishda emas". Buni yana boshqa ma'lumotlarga asoslangan holda tadqiqotni davom ettirish lozim. Olim G. A. Golts transport tarmog'i rivojlanishining mamlakat YALM o'sishiga ko'rsatadigan bevosita ta'siri bo'yicha aniq xulosalar bergan. Masalan, mamlakat transport tizimiga to'g'ridan to'g'ri aloqador bo'lgan avtomobil yo'llaridagi tashish sur'ati ushbu iqtisodiyot sohalarining rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Bundan ko'rindaniki, avtomobil yo'llari sifati hamda infratuzilmaning zamonaviy shaklda ta'minlanishi yuklarni tashish tezligining ortishiga xizmat qiladi va bu o'z navbatida mamlakatning YALM o'sishiga olib keladi.



## XULOSA VA TAKLIFLAR

Muxtasar qilib aytganda, iqtisodiyotda yuk va boshqa moddiy oqimlar zaxiralarini samarali tashkil etish transport tizimi samaradorligini oshirish va tashkiliy-iqtisodiy muammolarni hal qilish bilan bevosita bog'liq. Bu yerda, albatta, mazkur tizim faoliyatini samarali tashkil etish lozim deb hisoblaymiz. Transport turlari o'rtaida kuchayib borayotgan raqobatni hisobga olgan holda transport tizimini samarali rivojlantirish bo'yicha vazifalari ko'rsatib berildi. Mazkur vazifalarning amalga oshirilishi rivojlanish indekslari bo'yicha mamlakat transport tarmog'i reytingini dunyo miqyosida yuqori pog'onaga ko'tarishga xizmat qiladi. Transport tizimi samaradorligini oshirish bo'yicha berilgan uslubiyotlar va undan kelib chiquvchi xulosa hamda tavsiyalar transport tizimini rivojlantirishning qisqa va uzoq muddatdagi strategiyalarini ishlab chiqish hamda tizimni moderinizatsiya qilish, biznes hamkorlari bilan muvofiqlashuv va integratsiyalashuv jarayoni bo'yicha ishlarni samarali olib borish, mijozlarga sifatlari xizmat ko'rsatish va logistik xizmatlar provayderlarining raqobatbardoshligini oshirish, shu bilan birgalikda transport tizimi samaradorligini oshirish imkoniyatini beradi.

Shuningdek, transport tizimi samaradorligini oshirish uchun quyidagi chora-tadbirlar amalga oshirish lozim:

- tariflarni belgilash prinsiplarini o'zgartirish va bosqichma-bosqich yangi tarif tizimiga o'tish, tuzatish koeffitsiyentlari sonini kamaytirish, temir yo'l orqali tashishni har tomondan mablag' bilan ta'minlash turlarini kamaytirish;
- o'z lokomotiv va vagonlariga ega bo'lgan temir yo'l transportida yuk tashishga mo'ljallangan xususiy kompaniyalar tashkil etilishi uchun shart-sharoitlar yaratish orqali temir yo'lda yuk tashish sohasida raqobat muhitini shakllantirish;
- transport va logistika tizimining tezkorligi va ishonchlilagini oshirish, 2030-yilgacha elektr energiyasi bilan ta'minlangan temir yo'llar ulushini 55 foizga yetkazish. Buning uchun har yili o'rtacha 168 km temir yo'lni elektr energiya bilan ta'minlash zarur, sarmoyalar hajmi esa 5,34 mlrd. dollarни tashkil etishi kerak. 2030-yilgacha lokomotiv va vagonlarni yangilash uchun 1,2 mlrd. dollarlik sarmoya sarflash zarur;
- konteynerlarda tashilgan yuklarning transportga sarflanadigan to'lovlarini 10 foizga kamaytirish uchun konteynerda tashishni 25–30 foizga oshirish zarur;
- transport tizimi samaradorligini oshirish uchun mintaqalarda multimodal transport-logistika markazlari tarmog'ini kengaytirish;
- yuk tashish, intermodal va multimodal yuk tashishlarning normativ hamda huquqiy bazasini, texnik va texnologik reglamentini hamda standartlarini, logistika markazlarini, transport-ekspeditorlik faoliyatini xalqaro standartlarga mos holda shakllantirish;
- multimodal tashishlar samarali bo'lishini ta'minlash uchun integratsiyalashgan axborot tizimini tashkil etish;
- bojxona logistika markazlarining milliy tarmog'ini shakllantirish, ularda transport-logistika operatsiyalari kamida 3PL darajada bo'lishini ta'minlash lozim.

Shunday qilib, ko'rsatib o'tilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish natijasida transport tizimi samaradorligini oshirish, ishlab chiqarish va moddiy resurslar tejamini ta'minlash, transport xizmat ko'rsatishning jadallahushi hamda xarajatlarining kamayishi va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlanishiga olib keladi.

### Foydalilanigan adabiyotlar ro'yxati:

1. The World Bank: World Development Indicators. <http://data.worldbank.org/indicator>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldaggi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-sonli farmoni. // [www.lex.uz](http://www.lex.uz).
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 24-yanvar 2020-yil.
4. Venables, A. J. (2007). Evaluating Urban Transport Improvements: Cost-Benefit Analysis in the Presence of Agglomeration and Income Taxation. Journal of Transport Economics and Policy, 41:173. – 188 p.
5. Коврижных И. В. Анализ и оценки эффективности управления в организации / И. В. Коврижных. – Барнул: АФ СиБАГС, 2016. – 86 с.
6. Fayzullayev J. S. Improvement of Economic Efficiency of Development of Railway // Asian Journal of Technology & Management Research (AJTMR) ISSN: 2249-0892 Vol9 Issue-2, Dec-2019. [http://www.ajtmr.com/papers/Vol9Issue2/Vol9Iss2\\_P9.pdf](http://www.ajtmr.com/papers/Vol9Issue2/Vol9Iss2_P9.pdf)
7. Zohidov A. A. Markaziy osiyo transport tizimini samarali boshqarish mexanizmini takkomillashtirish. Iqt. fan. dok. ... dis. Avtoref., Toshkent 2018.
8. Frederick Starr S., Filat Yildiz, Martina reiser etc. The New Silk roads: Transport and trade in Greater Central Asia. Monograph Central AsiaCaucasus institute & Silk Road Studies Programm, Washington, D. C.: Johns Hopkins University-SAIS, 2007. – 514 p.
9. Терешина Н. П., Потапова Е. В., Терёшина Н. В., Епишкин И. А. Экономика транспорта. Учебное пособие. – М.: РУТ (МИИТ), 2018. – 142 с.
10. Гольц Г. А. Транспорт и макроэкономика России за три века. Материалы X международной (тринадцатой Екатеринбургской) научно-практической конференции 14–15 июня 2004 года.



11. Fayzullayev J. S. The economic-mathematical model of the organization activity of the modern transport-logistics system. // Бюллетень науки и практики – Bulletin of Science and Practice научный журнал (scientific journal). 2018. №5 (4). С. 345–352. DOI:10. 5281/zenodo. 1147072. Impact Factor (5) GIF – 0. 454; (21) Info Base Index – 1. 4; (17) OAJI – 0. 350, (43) (UIF) – 0. 1502; (4) JCR – 1. 021. <http://oaji.net/articles/2017/3996-1526585902.pdf>
12. Fayzullayev J. S. Evaluation of efficiency of transport – logistics system. // XLVII International correspondence scientific and practical conference “International scientific review of the problems and prospects of modern science and education” (Boston. Usa. July 24–25, 2018). – p. 62–65. <https://scientific-conference.com/images/PDF/2018/49/International-scientific-review-7-49-ISBN.pdf>
13. Fayzullayev J. S., Increasing the efficiency management of 3PL and 4PL logistics companies in the railway system. // “Стратегия действий Республики Узбекистан: макроэкономическая стабильность, инвестиционная активность и перспективы инновационного развития” Международная научно-практическая конференция. – Т., 2018, 28–29 мая. – С. 37–42. [http://tsue.uz/wp-content/uploads/2019/05/4.-Fayzullayev\\_J\\_S\\_increasing-the-efficiency-management-of-3pl-and-4pl-logistics-companies-in-the-railway-system.pdf](http://tsue.uz/wp-content/uploads/2019/05/4.-Fayzullayev_J_S_increasing-the-efficiency-management-of-3pl-and-4pl-logistics-companies-in-the-railway-system.pdf)
14. Fayzullayev, J. (2020). Effectiveness of modern methods in the development of the integration transport systems. Arxiv nauchnix issledovaniy, 1(3). <https://tsue.scienceweb.uz/index.php/archive/article/view/3892>
15. Fayzullayev, J. S. Effectiveness of modern methods in the development of the integration transport systems // Asian Journal of Technology & Management Research (AJTMR) ISSN: 2249 –0892 Vol9 Issue–2, Dec –2019 62–65. <https://saajr.com/wp-content/uploads/Sajmmr-July–2020-Full-Journal.pdf>
16. Fayzullayev, J. S. Theoretical Aspects of the Transport Logistics System Management // Asian Journal of Technology & Management Research (AJTMR) ISSN: 2249 –0892 Special Issue–2, Sep –2019. [http://ajtmr.com/papers/Splss2/Splss2\\_8.pdf](http://ajtmr.com/papers/Splss2/Splss2_8.pdf)
17. Fayzullayev, J. S. Transport-logistika tizimi: muammo va yechimlar // Proceedings of Global Technovation 2 nd International Multidisciplinary Scientific Conference Hosted from London, U. K. December 28th, 2020. <https://www.conferencepublication.com/index.php/aoc/article/view/424>
18. Fayzullayev. J. S. Problems And Status Of Efficiency Of The Transport And Logistics System In The Railway Network, Archive of Conferences: Vol. 13. No. 1 (2021): GTIMSC–2021, <https://www.conferencepublication.com/index.php/aoc/article/view/573>
19. Fayzullayev, J. S. (2021) “Economic-mathematical model of evaluating the efficiency of the transport system,” Economics and Innovative Technologies: Vol. 2021: No. 1, Article 1. <https://uzjournals.edu.uz/iqtisodiyot/vol2021/iss1/1>

# Yashil

IQTISODIYOT  
va  
TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Xondamir Ismoilov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

**2023. № 9**

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnalni manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

E-mail: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Telefon: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lisingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnalni 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027



**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.